



Dilafro'z XODJAYEVA,
Buxoro davlat universiteti PhD
E-mail: d.i.xodjaeva@buxdu.uz

Buxoro davlat universiteti PhD M. Akhmedova taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI LINGVODIDAKTIK TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAHLILI

Аннотация

Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillari lingvodidaktik terminlarining qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif qiyoslanayotgan ikki tildagi til o'qitishga doir terminlarni qiyosiy-tarixiy, etimologik va statistik tahlilga tortadi. Tahlilga tortilgan terminlarning ta'riflari turli manbalardan keltirilib, ularning ingliz va o'zbek tillaridagi ekvivalent shakllari, qo'llanilish sohalari, funksional xususiyatlari o'rganiladi. Olingan natijalar jadvallarda aniq va ixcham qilim taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Lingvodidaktika, leksik qatlam, termin, test, yondashuv, texnika, mustaqil ta'lim, pedagogika, baholash, aqliy hujum.

ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

Данная статья посвящена сравнительному исследованию лингводидактических терминов английского и узбекского языков, в котором автор подвергает сравнительно-историческому, этимологическому и статистическому анализу термины, связанные с преподаванием языков на двух языках. Определения и толкования анализируемых терминов даны из различных источников, изучены их эквивалентные формы в английском и узбекском языках, области применения и функциональные характеристики. Полученные результаты наглядно и лаконично представлены в таблицах.

Ключевые слова: Лингводидактика, лексический пласт, термин, тест, подход, методика, самостоятельное обучение, педагогика, оценивание, мозговой штурм.

ETYMOLOGICAL ANALYSIS OF LINGUODIDACTIC TERMS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article is devoted to the comparative study of the linguodidactic terms of the English and Uzbek languages, in which the author draws the terms related to language teaching of the compared languages to a comparative-historical, etymological and statistical analysis. The definitions of the analyzed terms are given from various sources, and their equivalents in English and Uzbek languages, areas of application, and functional characteristics are studied. The obtained results are presented in tables clearly and concisely.

Key words: Linguodidactics, lexical layer, term, approach, technique, autonomy, pedagogy, assessment, brainstorming.

Kirish. Til rivojlanishining xarakterli xususiyatlaridan biri til aspektlari turli xil rivojlanish darajasida namoyon bo'ladi. Til davrlar osha sekin rivojlanadi, o'zgarib boradi va bu xususiyat til sathlarining ham turlicha rivojlanishini yaqqol ko'rsata oladi, ya'ni tilning leksik, grammatik, fonetik va boshqa qatlamlari bir xil rivojlanmaydi. Ma'lumki, tilning leksik qatlami juda tez rivojlanadi, o'zgaradi, yangilanadi. Bunda kundalik hayot va jamiyat rivojlanishi natijasida eskirib qolgan tushunchalarni ifodalovchi so'zlar muomaladan chiqib, ular o'rnini yangi tushuncha ifodalovchi leksik birliklar egallaydi. Lug'at tarkibining doimiy o'zgaruvchanligi uning deyarli uzluksiz ichki qayta tuzilishi, jamiyat hayotining ma'lum ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan leksik qatlam birliklari munosabatlarining qayta tashkil etilishi bilan belgilanadi. Ba'zi so'zlar boshqa so'zlar bilan almashtiriladi; oldin bir-biriga mutlaqo aloqador bo'lmagan so'zlar yangi ma'no paydo bo'lishi tufayli o'zaro sinonim bo'lib qoladi; neologizmlar tilda o'zining muqim o'rnini topishga ulgurmay qo'llanishdan chiqib ketishi, yoki lingvistik yangi tushuncha ifoda etish xususiyatini yo'qotib, tilning leksik tarkibiga mustahkam kirib borishi mumkin; ilgari keng muomalada bo'lgan so'zlar kam qo'llanishi va asta-sekin arxaizmga aylanishi yoki umumiste'moldan butunlay chiqib ketishi ham mumkin; oldin neytral nutq uslubiga ega bo'lgan so'zlarga, ma'lum sabablarga ko'ra, yangi uslubiy bo'yoqdorlik yuklanadi; ilgari evfemizm sifatida qo'llangan so'zlar tushuncha va nomlarni to'g'ridan-to'g'ri nomlashni boshlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Milliy til rivojlanishi turli omillarga bog'liq bo'ladi. Muayyan til rivojlanishida mamlakatning taraqqiy etishi, leksik qatlamning paydo bo'lish tarixi asosiy omillardan biridir. "Terminologiya uzoq shakllanish va rivojlanish yo'lini bosib o'tadi. Terminologiyaning shakllanishida terminlarni boshqa soha terminologiyasidan yoki

tilning umumiste'moldagi lug'at tarkibidan o'zlashtirish, ko'p hollarda esa, metaforik ma'noda o'zlashtirish xosdir. [1]. Shu sababli, ushbu tadqiqot doirasida ingliz va o'zbek tillaridagi lingvodidaktik terminlarni etimologik tahlil qilishni maqsad qildik. Tilshunoslikda so'z o'zlashtirishning ko'plab tasniflari mavjud. Ulardan biri o'zlashtirish sabablariga asoslangan tasnifdir, masalan, ekstralingvistik va lingvistik sabablarga ko'ra o'zlashtirish.

Tadqiqot metodologiyasi. Terminlar til tarkibiga turli usul va yo'llar orqali kirib keladi. Birinchisi - ona tilida ko'p qo'llaniladigan so'zni termin sifatida ishlatishdir. Ikkinchisi - termini boshqa tillardan o'zlashtirish. Jamiyat shakllanishining ma'lum bosqichida terminlar turli tillardan o'zlashtiriladi, bu esa "tarixiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi. O'zlashtirishning eng ko'p tarqalgan turi - yunon va lotin tillari so'zlari va so'z yasaliş modellaridan foydalanishdir" [2]. Dastavval har bir fan o'z tarkibida mavjud bo'lgan umumiste'moldagi so'zlardan foydalanadi va u alohida fan sohasiga ajralgandan keyingina bu soha o'z terminologiyasini yaratadi. Ingliz tilidagi lug'at tarkibi yaralish tarixining o'ziga xosligi mamlakatni normanlar, fransuzlar va boshqa xalqlar tomonidan bosib olinishidan iborat edi. Shu sababli zamonaviy ingliz tilida qo'llaniladigan ko'plab so'zlar til lug'at tarkibiga o'sha davrlarda kirgan.

Ingliz tili lug'at tarkibida turli tarixiy davrlarda o'zlashtirilgan leksik birliklar qariyb 70% ni tashkil qiladi va ular turli davrlar, tarixiy voqea-hodisalar ta'sirida tilga kirib kelib, mamlakatning tarixiy, geografik, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

So'z o'zlashtirish jarayoni manba tili, usullari, shakllari va turlari, shuningdek, o'zlashtirilgan so'zning yangi tilda o'zlashtiradigan o'zgarishlarini ham qamrab oladi. V.P.Danilenko

ta'kidlaganidek, "o'zga tildan maxsus tushuncha nomlarini olish bilan bog'liq holda, tilda o'zlashtirilgan so'zlar uchun "moda" mavjudligini ham yodda tutish kerak. Kundalik nutqqa kirib boradigan moda juda tez o'tadi. Tilning eng barqaror leksik qatlami bo'lgan terminologiyaga ham moda kirib kelganda, vaziyat ancha murakkablashadi" [3].

Ingliz tilidagi asosiy lingvodidaktik terminlarni o'rganish til rivojlanishining tarixiy va ijtimoiy sharoitlar ta'siri nuqtai nazaridan amalga oshiriladi, bu esa tildagi hodisalarni bildiruvchi terminlarning paydo bo'lish vaqtini aniqlash imkonini beradi. Alohida leksik birliklar rivojlanishining etimologik tahlili bizga ushbu terminologiyaga qanday turdagi o'zlashtirishlar xosligini aniqlash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilida ko'p qollanuvchi 245 ta lingvodidaktik terminlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning asosiy qismi, ya'ni 107 ta termin fransuz tilidan ingliz tiliga kirib kelgan, ularning ham asosiy qismi fransuz tiliga lotin tilidan o'zlashtirilgan.

Approach, ya'ni yondashuv terminiga e'tiborimizni qaratamiz. Mazkur termin ham ingliz tiliga eski fransuz tilidan (aprochier, aprocher), fransuz tiliga esa lotin tilidan (appropriare 'come closer, from ad- 'to' + propius (comparative of prope 'come nearer')) o'zlashtirilgani ma'lum bo'ladi [4].

LONGMAN lug'atida approach terminiga quyidagi ta'rif berilgan: approach n in language teaching, the theory, philosophy and principles underlying a particular set of teaching practices. Language teaching is sometimes discussed in terms of three related aspects: approach, method, and technique. Different theories about the nature of language and how languages are learned (the approach) imply different ways of teaching language (the method), and different methods make use of different kinds of classroom activity (the technique). Examples of different approaches are the Aural-Oral Approach (see Audiolingual Method), The Cognitive Code Approach, The Communicative Approach, etc. [5].

Tahlil jarayonida ba'zi terminlarning to'g'ridan-to'g'ri lotin tilidan ingliz tiliga kirib kelganligining ham guvohi bo'ldik. Masalan, til o'qitishda keng qo'llanadigan syllabus, hypothesis, curriculum, criterion, deductive, dictation, education, examination, introvert, fluency, gesture, proficiency, aspect, integration, association, assessment va boshqa terminlar umumiy hisobda 67 tani tashkil etadi (27%). Masalan, assessment termini nafaqat ingliz tilida, balki keyingi yillarda o'zbek tilida ham o'quvchilar bilimni baholashni ifodalash uchun assisment shaklida qo'llanilayotganligining guvohi bo'lganmiz. Aslida termin ingliz tiliga XV-asrning boshlarida lotin tilidagi assessus - o'tirish so'zidan kelib chiqib, keyinchalik assessare - soliq miqdorini o'rnatish ma'nolarida ishlatilgan.

Anglo-Fransuz tilidagi assessor so'zidan "miqdorni aniqlash (soliq, jarima va h.k.)" ma'nosida ishlatilgan. O'sha davrda hakam yordamchisining vazifalaridan biri xalqdan soliqni undirish bo'lganligi sababli "yonida o'tirish, ya'ni hakamning yonida o'tirib, mulk qiymatini soliqqa tortish" ma'nolarida muomalaga kiritilgan va keyinchalik, 1934-yildan keyin insonni, uning erishgan yutuqlarini baholash ma'nosida ham qo'llanila boshlangan [6].

Ko'rinib turganidek, assessment termini turli manba dalillari asosida talabning qobiliyati, muvaffaqiyati yoki o'qitish sifati haqida ma'lumot to'plash va xulosalar chiqarishda baholashning tizimli yondashuvi sifatida izohlangan. Baholash test, intervyu, anketa, kuzatish va h.k.lar orqali amalga oshirilishi mumkinligi ham qayd etilib, boshqa misollar bilan to'ldirilgan.

Tahlil davomida nisbiy ma'noda 20 ta sohaga oid terminlar yunon tilidan o'zlashganligi ma'lum bo'ldi (8,5%). Ularga autonomy-mustaqil ta'lim olish, measurement-baholash, o'lchov, strategy-strategiya, method-metod, mentor-mentor, pedagogics-pedagogika, kinesthetic-kinestetik kabi terminlarni kiritish mumkin.

Autonomy termini yunoncha "o'z" degan ma'noni anglatuvchi "auto" va "nomos" "odat" yoki "qonun" so'zlaridan kelib chiqqan. Bu so'z aslida siyosiy ma'no - guruhning o'zini o'zi boshqarish yoki o'zini o'zi boshqarish huquqini aks ettiradi. Biror kishi avtonomiyaga intilganda, u hokimiyatdan mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lishni xohlashi nazarda

tutilgan. Asosan, bu termin "mustaqil ta'lim" bilan bog'langan va ba'zan u bilan sinonim sifatida ishlatiladigan so'z bo'lib, asosiy ma'nosi o'quvchi o'qituvchining bevosita yordami yoki ko'rsatmasiz tilni qanchalik ko'p o'rganishga qodir bo'lsa u shu tilni va boshqa tillarni keyinchalik o'rganishga shunchalik yaxshi tayyorlanadi va til o'rganishga shunchalik ko'p intiladi. Ta'lim olishda mustaqil bo'lish bu - individual xususiyatmi yoki ta'lim muassasasiga xos xususiyat sifatida namoyon bo'ladigan holatmi; u o'qituvchilar tomonidan tarbiyalanishi mumkin bo'lgan psixologik hodisami yoki u o'quvchilar yashaydigan jamiyatning ijtimoiy-madaniy holati muqarrar mahsulimi, degan masalalarda haligacha yakdillik mavjud emas.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, autonomy bu dastlab siyosat sohasida qo'llanilgan bo'lib, keyinchalik ta'lim sohasida qo'llanila boshlangan va "mustaqil ta'lim" bilan bog'langan va ba'zan u bilan sinonim sifatida ishlatiladigan so'z bo'lib, o'zbek tilida aynan mustaqil ta'lim olish degan ma'noni ifodalaydi.

Lingvodidaktik terminlarning ma'lum qismi ingliz tilining o'z qatlamidan kirib kelgan va bunday terminlar bizning tahlilimizda 45 tani tashkil etadi (18,3%). Bularga misol qilib quyidagi terminlarni olishimiz mumkin: assessment - baholash, assisment, brainstorm - aqliy hujum, creative - ijodiy, kreativ, critical-tanqidiy, score - ball, feedback - fidbek, interactive - interaktiv, keyword - kalit so'z, knowledge - bilim va b. Bulardan ba'zi terminlar tahliliga e'tiborni qaratamiz. Masalan, assessment terminiga manbalarda quyidagi izoh va ma'lumotlarni uchratdik: "Assesment" metodi ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) boyicha tashhis qilinadi va baholanadi [7].

Brainstorm, ya'ni aqliy hujum termini - bu kutilmagan muammoni guruhda hal qilish orqali ijodiy g'oya va yechimlarni o'z ichiga olgan o'qitish usuli hisoblanadi. Ushbu usul qizg'in, erkin muhokamani talab qiladi, bunda guruhning har bir a'zosi tanqidiy, ijodiy fikrlab, iloji boricha ko'proq g'oyalarni taklif qilishga jalb etiladi.

Ijodiy muammolarni hal qilish - bu maqsadli o'zgarishlar uchun ijodiy fikrlash va innovatsion yechimlarni uyg'otishga mo'ljallangan bosqichma-bosqich jarayon bo'lib hisoblanadi. Ijodiy muammolarni hal qilish jarayonining asoschisi Aleks Osborn - Amerika reklama agentligining asoschisi edi. U 1952-yilda yetti bosqichli ijodiy muammolarni hal qilish jarayonini nashr etdi. Keyingi nashrlarda mazkur usul omma orasida keng tarqaldi va Osborn, shuningdek, birinchi marta "aqliy hujum" tushunchasini umumiy amaliyot va til o'rganish jarayoniga ham kiritdi. Ammo shuni ham e'tirof etish joizki, mazkur termin XIX-asrning ikkinchi yarmida Amerikada paydo bo'lishiga qaramay, bu usul hali Amerika kashf etilgan davrda o'z aql mash'alasi bilan dunyoni yoritgan qomusiy olimlarimiz (Ahmad al Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va boshqa) yoki yetti iqlimni zabt etgan shohu-sultonlarimiz o'z muammolarini yechishda shu usuldan keng foydalanishgan. Bobokalonlarimiz bu metodni "kengash", "mashravat", "maslahat" deb atashgan. Misol uchun, Sohibqiron Amir Temur saltanat oldida turgan muammolarni yechishda mashravat chaqirib, barcha saroy ahlining, vazirulamolarning, farzandlarining fikrlarini diqqat bilan eshitgan va ular asosida yagona hukm chiqargan [8].

Brainstorming n brainstorm v 1. (in language teaching) a group activity in which learners have a free and relatively unstructured discussion on an assigned topic as a way of brainstorming generating ideas. Brainstorming often serves as preparation for another activity; 2. (in teaching writing) a form of prewriting (see composing processes) in which a student or group of students write down as many thoughts as possible on a topic without paying attention to organization, sentence structure or spelling. Brainstorming serves to gather ideas, viewpoints, or ideas related to a writing topic and is said to help the writer produce ideas [5].

Demak, aqliy hujum faqatgina ijodiy fikrlab muammoni guruhda hal qilish emas, balki talabalarning yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirishda ham faol qo'llanilib, mavzuga oid

g'oya va fikrlarni to'plash hamda umumlashtirish uchun xizmat qiladi.

Tahlil davomida ingliz tilidagi lingvodidaktik terminlarning ba'zilar boshqa turli tillardan kirib kelganligi ham ayon bo'ldi. Masalan, drill so'zi golland tilidagi "drillen - bore, turn in a circle" so'zidan, portfolio italyan tilidagi portafogli

Jadval 2. Ingliz tilidagi lingvodidaktik terminlarning etimologik tahlil natijalari

Ingliz tilidan kelib chiqqan terminlar	Lotin tilidan kelib chiqqan terminlar	Yunon tilidan kelib chiqqan terminlar	Fransuz tilidan kelib chiqqan terminlar	Turli tillardan kelib chiqqan terminlar	Umumiy soni
45 ta	67 ta	20 ta	107 ta	6 ta	245 ta
18,3%	27,4%	8,1%	43,7%	2,5%	100%

Ingliz tilida bo'lganidek, o'zbek tilidagi lingvodidaktik terminlarning ham asosiy qismi boshqa tillardan o'zlashtirilgan va uni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

Jadval 3. O'zbek tilidagi lingvodidaktik terminlarning etimologik tahlil natijalari

otin	L	Yunon	Frans	In	A	Fors-	Qo'	O'z	Bos
81	1	102	22	1	1	13	57	95	11
8,8%	2	16,3%	3,6%	1,	1,9%	2%	9%	15,2	1,7

Ko'rib turganimizdek, sof o'zbek tili lingvodidaktik terminlari (masalan, bilim, bosqich, boshqarish, egallash, eshitish, izchillik, ko'nikma, ko'rgazma, ko'rsatma, loyiha, oraliq, og'zaki, ong, qolip, sinov va h.k.z. terminlar) 95 tani, ya'ni 15,2%ni tashkil etishi va lingvodidaktik terminlarning asosiy qismi o'zbek

so'zidan, team so'zi nemis tilidagi taukh→ taugmaz so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bunday so'zlar juda ozchilikni tashkil etadi (umumiy hisobda 2,7 %).

Xulosa. Lingvodidaktik terminlarning etimologik tahlili natijalarinin quyidagi jadvalda ifoda etamiz:

tiliga lotin tilidan (masalan, abstract, aktiv, alternativ, audiolingval, auditoriya, deduksiya, fakultativ, formal, information, interferensiya va h.k.z. terminlar) o'zlashtirilganligi ma'lum bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Лейчик, В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура / В. М. Лейчик. – изд. 3-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2007. – 256 с.
2. Княк, Т. Р. Лингвистические аспекты терминоведения: учебное пособие / Т. Р. Княк. – Киев: УМК ВО, 1989. – 104 с.
3. Даниленко, В. П. Терминология современного языка науки. Терминоведение и терминография в индо-европейских языках / В. П. Даниленко. – Владивосток, 1987. – С. 61–66.
4. <https://www.etymonline.com/word/approach>
5. Jack C.Richards, Richard Schmidt. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. – Pearson, 2010. – 654 p.
6. <https://www.etymonline.com/search?q=assessment>
7. А.М.Абдуллаева. Педагогик акмеология. - Namangan Davlat Universiteti, 2021. – 219 b.
8. <https://behruzbeq.uz/2020/03/21/aqliy-hujum-metodi/#>